

O'zDSMIga Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o'quvchilari tashrif buyurdi



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga Prezident ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o'quvchilari tashrif buyurdi.



O'quvchilarga mazkur institutdagi o'quv jarayonlari, nazariy va amaliy mashg'ulotlar borasida ma'lumotlar berildi. Shu yerning o'zida ijod maktabi o'quvchilari talabalar uchun olib borilayotgan mashg'ulotlarda qatnashib, bevosita ularni ko'zdan kechirishdi.





Axborot resurs markaziga tashrifi chog'ida o'quvchilar bu yerdagi badiiy va o'quv adabiyotlari bilan yaqindan tanishib, bir finjon qahva bilan siylandi.



O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf nomidagi ko'shkda davom etgan uchrashuvda o'quvchilar tomonidan Muhammad Yusuf hamda Abdulla Qodiriy she'rlaridan namunalar o'qildi.



Institut talabalari hamda ijod maktabi o'quvchilari ijrosida kuy-qo'shiqlar namoyish etildi.



Tashrif doirasida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o'rtasida kelgusida ham hamkorlik aloqlarini yanada mustahkamlash, institut tomonidan mahorat darslarini tashkil etish borasida fikrlashib olindi.

Matbuot kotibi